



FOLKLOR QO‘SHIQLARINI TALABALARGA O‘RGATISHNING AYRIM JIHATLARI

Abdullayev Rustam Mamarajabovich

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti,
“Folklor va etnografiya” kafedrası professori v.b.,*

Annotatsiya Mazkur maqolada folklor qo‘shiqlarini talabalarga o‘rgatishning muhim jihatlari taxlil qilingan. Folklor qo‘shiqlarining turlari va xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek folklor qo‘shiqlarini talabalarda o‘rgatishda duch keladigan ayrim muammo va kamchiliklar taxlil qilingan va yechimlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, kompetensiya, muammo, talaba, o‘qituvchi, tur, janr, mavsumiy qo‘shiqlar, marosim qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari.

Аннотация В данной статье анализируются важные аспекты обучения школьников фольклорным песням. Изучены виды и особенности фольклорных песен. Также проанализированы некоторые проблемы и недостатки, возникающие при обучении школьников фольклорным песням, и представлены пути их решения.

Ключевые слова: фольклор, компетентность, проблема, ученик, учитель, тип, жанр, сезонные песни, обрядовые песни, трудовые песни.

Annotation This article analyzes important aspects of teaching folk songs to schoolchildren. The types and characteristics of folk songs have been studied. Some problems and shortcomings that arise when teaching folk songs to schoolchildren are also analyzed, and ways to solve them are presented.

Key words: folklore, competence, problem, student, teacher, type, genre, seasonal songs, ritual songs, work songs.

KIRISH. Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kelajakda ularni turli kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda folklor san‘atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu borada respublikamizda Prezidentimiz va Vazirlar mahkamasining qator qonun vq qarorlari sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Folklor san‘atiga oid adabiyotlarda folklor termining birinchi bor Uilyam Toms tomonidan 1846-yilda fanga kiritganligi va uning “xalq donishmandligi” ma’nosini anglatishi soha vakillariga ma’lum. Uning fan sifatida shakllanishi rivoj topishida U.Tomsning xizmatlari beqiyos.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Folklorga oid bilimlar va ularni oliy ta’lim tizimida talabalarga o‘qitish bo‘yicha uning tur va janrlarini tahlil qilish yuzasidan qator olimlar

izlanishlar olib borishgan. Xususan, bu sohada yetakchi olimlardan J. Eshonqulov, A. Ashirov, Sh. Turdimov, O‘. Toshmatov, J. Shukurov va boshqa qator olimlar uning tur va janrlari va ta’lim tizimida o‘qitilishiga oid tadqiqotlar olib borishgan.

Biz ushbu fklrlarni to‘liq quvvatlagan holda Markaziy Osiyoda “folklor” san’ati qadimdan mavjud ekanligini va fan sifatida nisbatan keyinroq tadqiq etilganligini takidlashimiz joiz.

O‘zbek folklorshunosligida bu jarayon nisbatan boshqacharoq kechdi. Biz istemolda bu tushunchani “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti” tushunchalari tarzida ishlata edik. Shubxasiz folklore va uning ilmiy termin sifatida yurtimizga kiritilishi turli davrlarda turlicha kechdi. Natijada folklor yaxlit fan sifatida shakllandi va bugungi kunga qadar ko‘plab janrlarni o‘z ichiga olgan holda rivojlanib kelmoqda.

O‘zbek folklorshunosligida H. Zarif va Sh. Rajabiyning xizmatlari juda katta. Aynan bu terminning o‘zbek olimlari orasida o‘rganilishi va iste’molga kiritilishiga katta xissa qo‘shishgan.

Olimlarning fikricha “folklor” o‘z xususiyatiga ko‘ra sinkretikdir. Sinkretiklik barcha jabhalarda bo‘lgani kabi folklorda ham muayyan ahamiyat kasb etadi. Chunki bu san’at turning har biri turli an’analarini o‘zida mujassam etadi. Misol uchun doston aytuvchi ijrochi o‘z termalarini yoki dostonlarini ijro etish vaqtida ham soz, ham so‘z uyg‘unligiga murojaat qiladi. Bu jarayon tabiiy ravishda kechadi. Shuningdek, folklorga oid yana bir qator janrlarda xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida (Ertak, afsona, naql, rivoyat, lof, latifa, maqol va topishmoq janrlari) mimika va pantomimika harakatlari ijro bilan sinkretik tarzda janrdagi ustuvor g‘oyalarning tarannum etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Folklorning ijodkori – xalq sanaladi. Ijodkor xalq o‘z ijtimoiy xo‘jalik turmush tarzi shakllaridan kelib chiqib turli qo‘shiqlar ijro etgan (sog‘im qo‘shiqlari, qo‘sh qo‘shganda ijro etiladigan qo‘shiqlar, dexqonchilik, chorvachilik bilan bog‘liq, tikish bichish, hunarmandchilik va h.k). Shuningdek ularning ijtimoiy turmush tarzida o‘tkaziladigan marosimlar bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham alohida o‘rin tutadi.

O‘zbek xalqida marosimlar juda katta o‘ringa va ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda marosimlar uch katta guruhga: mavsumiy marosimlar, diniy marosimlar va oilaviy-maishiy marosimlarga bo‘lib o‘rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mavsumiy marosimlar folkloriga to‘rt fasl va ularda amalga oshiriladigan marosimlar, shungdek ularda ijro etiladigan qo‘shiqlar kiritiladi. Diniy marosimlarda esa aytiladigan salovatlar va nishidalar, aytimlar, oilaviy-maishiy marosimlarda inson tug‘ilganidan to vafot etgunga qadar o‘tkaziladigan marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlarni misol keltirishimiz mumkin.

Oliy ta’lim tizimida (madaniyat va san’ati sohasida) biz yuqorida sanab o‘tilgan marosim qo‘shiqlari, xususan folklorning tur va janrlarini o‘rgatishni taqazo qiladi. Folklor asarlari orqali talabalarda turli kompetensiyalarni shakllantirish, shakllanib kelayotgan kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Folklor va unga xos an‘analar turli davrlarda shakllandi va avloddan-avlodga og‘zaki shkllda yetib kelmoqda. Ushbu an‘anani talaablr orsaida ommalashtirish sof foklkor qo‘shiqlarini ijro etish uchun tanlab olish muhim hisoblanadi.

Folklor san‘ati vositasida talabalarga ta‘lim berish orqali ularda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim deb hisoblaymiz:

- folklor san‘ati vositasida vatanparvarlik va o‘z millatiga sadoqat tuyg‘ularini
- ustoz-shogird an‘analarini
- talabalarda ijodiy ko‘nikma va malakalar
- hududlarga xos foklor qo‘shiqlari va aytim yo‘llari
- marosimlarda ijro etiladigan marosim va nomarosim qo‘shiqlarini ijro etish


Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bugungi kun madaniyat va san‘at hodimlari oldiga qo‘yilgan qator vazifalarni amalga oshirishda talabalar faoliyatini ilmiy-ijodiy va an‘anaviy shakllar uyg‘unligida tashkil etishga e‘tibor qaratish uchun zamin bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki folklor folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishda talabalarining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- dars jarayonida o‘qitishning yangi texnologiyalaridan unumli foydalanish dars jarayoning sifatli va samarali tashkil etilishiga ta‘sir qiladigan yetakchi omil hisoblanadi;
- talabaning shaxsiy-individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ta‘lim va tarbiya birligi tamoyilidan foydalanish va ta‘limda ta‘labalarining folklor qo‘shiqlari vositasida tarbiyalash funksiyasidan foydalanish;
- ta‘limda zamonaviy texnologiyalar xususan, mediaresurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish amaliyotini targ‘ib etish;
- pedagogning o‘quv kompetentligini oshirishda o‘quv dasturlari tarkibining yangilanganligiga ahamiyat berish.

Ta‘lim oluvchining o‘quv faoliyatiga tasir qiluvchi omillarni quyidagi sxema orqali quyidagicha ifoda etish mumkin:



• **O‘quv faoliyatiga tasir qiluvchi omillar** – sifatida dars jarayonida pedagog foydalanishi lozim bo‘lgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin egallaydi. Shuningdek mavsumiy qo‘shiqlarni o‘zlashtirishda tanlangan repertuar dars mazmunini samarali qilishga xizmat qiladi.

• **o‘quv kompetentligini oshirishga qaratilgan jarayon** – o‘quv jarayoni pedagog va talaba ishtirokida faol jarayonga aylanishi uchun, kompetensiyaviy yondashuvni talab qiladi.

• **ta‘lim+tarbiya** – har qanday ta‘lim bilan bog‘liq jarayon bevosita tarbiya bilan uyg‘unlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Ijro uchun mo‘ljallanga folklor qo‘shiqlari mazmunida talabalarning ham ijodiy, ham tarbiyaviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan mazmun alohida ahamiyatga ega.

XULOSA. Ta‘lim va tarbiya jarayonida folklore qo‘shiqlari, shuningdek uning tur va janrlaridan unumli foydalanish orqali bugungi standard madaniyat yoyilgan va madaniyatlararo keskinlashuv va qorishuv jarayoni kechayotgan paytda juda muhim hisoblanadi.

Shunday ekan ta‘lim tizimida folklor vositalardan foydalanish va bu orqali talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- ta‘lim tizimi bugungi kundagi folklor tur va janrlaridan ta‘lim tizimida keng foydalanishga muhtojlik sezmoqda

- folklor vositalari va axborot texnologiyalari audiovizual axborotlarni zamonaviy qayta ishlash usullarini tatbiq qilish bilan ta‘limni unumdorligini oshirish mumkin

- folklorga oid bilimlar barcha ta‘lim sohasini sifat jihatidan yanada yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarishga, madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni takidlash mumkinki, o‘quv jarayoni murakkab, tizimli jarayon. Uni to‘g‘ri tashkil etish va samarali natijaga erishish ta‘lim oldida turgan dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Folklor qo‘shiqlari vositasida talabalarda vatanparvarlik, o‘z xalqiga xurmat, milliy mentalitet kabi tushunchalar rivojlanib boradi va avlodlardan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori

2. 2017-yil PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

3. 2019-yil PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni

4. O‘zbek folklor ocherklari. 2-tom. B.Sarimsoqov muharrirligi ostida.

5. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limning asosiy jihatlari. Samaridin Barakayevich Qorayev. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385. - B 1075.

6. O‘qituvchi mediakompetentligi – shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida. Usmonaliyeva ., Allayorov T. Ta‘limning axborot-resurs tarkibi. – B 46.